

**DAVLAT BOSHQARUVINING SHAKLI SIFATIDA
MONARXIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TURLARI**

Qo‘chqarov Behruz Nazirjon o‘g‘li

Farg‘ona yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

2-bosqich 43-24-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat boshqaruvi shaklining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan monarxiyaning tushunchasi, tarixiy shakllanishi, siyosiy-huquqiy tabiati, asosiy yuridik belgilari va turlari davlat va huquq nazariyasi hamda konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Monarx hokimiyatining merosiyligi, muddatsizligi, aholidan bevosita mandat olmasligi, siyosiy va yuridik javobgarlikdan ozodligi kabi an‘anaviy belgilarining zamonaviy konstitutsiyaviy monarxiyalardagi mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat shakli, davlat boshqaruvi shakli, monarxiya, monarx, mutlaq monarxiya, cheklangan monarxiya, konstitutsiyaviy monarxiya, parlamentar monarxiya, dualistik monarxiya, teokratik monarxiya, merosiy hokimiyat, parlament, hukumat, davlat boshlig‘i.

Аннотация. В данной статье с точки зрения теории государства и права, а также конституционного права проанализированы понятие, историческое становление, политико-правовая природа, основные юридические признаки и виды монархии как одной из основных форм государственного правления. Раскрыто содержание таких традиционных признаков монархической власти, как наследственный характер, бессрочность, отсутствие прямого мандата со стороны населения, освобождение монарха от политической и юридической ответственности в современных конституционных монархиях.

Ключевые слова: форма государства, форма государственного правления, монархия, монарх, абсолютная монархия, ограниченная монархия, конституционная монархия, парламентская монархия, дуалистическая монархия, теократическая монархия, наследственная власть, парламент, правительство, глава государства.

Abstract: This article analyzes the concept, historical development, political and legal nature, principal legal characteristics, and types of monarchy as one of the main forms of government from the perspectives of the theory of state and law and constitutional law. It also examines the contemporary meaning of such traditional features of monarchical power as hereditary succession, indefinite tenure, the absence of a direct mandate from the population, and the monarch's exemption from political and legal responsibility in modern constitutional monarchies.

Keywords: form of state, form of government, monarchy, monarch, absolute monarchy, limited monarchy, constitutional monarchy, parliamentary monarchy, dualistic monarchy, theocratic monarchy, hereditary power, parliament, government, head of state.

Davlatning mohiyati va ijtimoiy vazifalarini to'liq anglash uchun uning hokimiyati qanday tashkil etilgani, oliy davlat organlari qay tartibda shakllantirilishi, davlat boshlig'ining huquqiy maqomi, parlament va hukumatning o'zaro munosabatlari hamda aholining davlat hokimiyatini shakllantirishdagi ishtiroki o'rganilishi lozim. Davlat va huquq nazariyasida mazkur masalalar "davlat shakli" tushunchasi doirasida tahlil qilinadi. Davlat shakli davlat boshqaruvi shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejimning o'zaro bog'liq birligini ifodalaydi. Davlat boshqaruvi shakli esa oliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlat boshlig'ining huquqiy maqomi va aholi bilan munosabatlari belgilaydigan davlat shaklining tarkibiy qismidir.[1] Shu ma'noda boshqaruv shakli davlat hokimiyati kimga tegishli ekani bilangina

cheklanmasdan, mazkur hokimiyatning qay tartibda vujudga kelishi, qancha muddat amal qilishi, qaysi organlar tomonidan cheklanishi va jamiyat oldida qanday javobgarlikka ega ekanini ham qamrab oladi. O‘zbek huquqshunoslari tomonidan davlat boshqaruvi shakliga berilgan ta’riflarda ham, asosan, oliy davlat organlarini tashkil etish tartibi va ularning o‘zaro hamda aholi bilan munosabatlari markaziy o‘rin egallaydi.

Davlat boshqaruvining tarixan shakllangan asosiy ikki ko‘rinishi monarxiya va respublika hisoblanadi. “Monarxiya” atamasi yunoncha “monos” — bir, yakka va “arche” — hokimiyat, boshqaruv so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, yakka hokimlik yoki bir shaxs hukmronligini anglatadi. Biroq monarxiyani faqat hokimiyatning bir shaxs qo‘lida mavjudligi bilan izohlash yetarli emas. Prezidentlik respublikasida ham davlat boshlig‘i bitta shaxs hisoblanadi, ammo u muayyan muddatga saylanadi, o‘z vakolatini xalq yoki vakillik organidan olgan mandat asosida amalga oshiradi va konstitutsiyada belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Monarx esa, odatda, o‘z hokimiyatini umumxalq saylovi natijasida emas, taxt vorisligi, sulolaviy huquq, tarixiy an‘ana yoki alohida tartib asosida egallaydi. Shuning uchun monarxiyaning mohiyati yakka shaxs boshqaruvidan ko‘ra, oliy davlat hokimiyatining kelib chiqish manbai va uning huquqiy davomiyligi bilan belgilanadi.

A.Saidov va U.Tojixonov monarxiyada davlat monarx shaxsida namoyon bo‘lishi, monarx davlat va millat birligining ramzi sifatida tashqi va ichki munosabatlarda o‘z nomidan harakat qilishiga e’tibor qaratadilar. Olimlarning fikricha, monarx davlatning oddiy mansabdor shaxsi emas, balki hokimiyatning tarixiy va huquqiy timsoli sifatida maydonga chiqadi.[2] Mazkur yondashuv monarxning huquqiy maqomida davlat va shaxs o‘rtasidagi o‘ziga xos birlik mavjudligini ko‘rsatadi. Respublikada davlat boshlig‘i lavozimi bilan uni egallab turgan shaxs o‘rtasida qat’iy yuridik ajratish mavjud bo‘lsa, an’anaviy monarxiyada davlat boshlig‘i maqomi

monarxning shaxsiy va sulolaviy maqomi bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli monarxning nomi, unvoni, oilasi va taxt vorisligi masalalari ham davlat huquqining predmetiga aylanadi. O‘zbek huquqiy adabiyotlarida monarx hokimiyatining oliy va suveren xususiyati, uning davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq hamda davlat nomidan ishtirok etishi, tarixiy monarxiyalarda esa hokimiyatning muqaddas deb e’tirof etilgani ta’kidlanadi.

Monarxiyaning birinchi va eng muhim belgisi davlat boshlig‘i hokimiyatining, qoida tariqasida, merosiy xususiyatga ega ekanidir. Taxt muayyan sulola doirasida avvaldan belgilangan vorislik qoidalari asosida bir shaxsdan boshqasiga o‘tadi. Bunda aholining irodasi har bir yangi monarxni tayinlash yoki saylashda bevosita ifodalanmaydi. Taxt vorisligi primogenitura, ya’ni katta farzandning ustuvorligi, erkak avlodga ustunlik berish, mutlaq primogenitura, sulolaviy kengash qarori yoki boshqa maxsus qoidalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi konstitutsiyaviy monarxiyalarda vorislik tartibi, odatda, konstitutsiya, taxt vorisligi to‘g‘risidagi qonun yoki konstitutsiyaviy odatlar bilan tartibga solinadi. Demak, merosiylik monarx hokimiyatining o‘zboshimchaligini emas, balki uning umumiy saylov jarayonidan tashqaridagi maxsus huquqiy mexanizm asosida uzluksiz davom etishini anglatadi.

Ayni vaqtda barcha monarxiyalar ham mutlaqo merosiy emas. Davlatshunoslikda saylanma monarxiya tushunchasi ham mavjud bo‘lib, unda monarx cheklangan doiradagi maxsus subyektlar tomonidan saylanadi. Masalan, Malayziyada oliy hukmdor muayyan muddatga federatsiya tarkibidagi sultonlar orasidan saylanadi. Vatikanda Rim Papasi kardinallar kollegiyasi tomonidan umrbod muddatga saylanadi va ayni vaqtda davlat boshlig‘i hamda diniy rahbar maqomini egallaydi. Bunday holatlar monarxiyaning mutlaq belgisi merosiylikdan ko‘ra kengroq ekanini ko‘rsatadi: monarx odatda xalq tomonidan umumiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanmaydi, uning hokimiyati esa oddiy saylab qo‘yiladigan davlat

lavozimidan farqli ravishda sulolaviy, diniy yoki maxsus konstitutsiyaviy asosga ega bo‘ladi.

Monarxiyaning ikkinchi belgisi monarx vakolatining muddatsizligi yoki umrbodligi hisoblanadi. Respublikada prezident yoki boshqa saylanadigan davlat boshlig‘i konstitutsiyada belgilangan muddat davomida faoliyat yuritisa, monarx, qoida tariqasida, vafotiga, taxtdan voz kechishiga yoki maxsus konstitutsiyaviy asoslar bo‘yicha vakolati tugatilishiga qadar davlat boshlig‘i bo‘lib qoladi. S.A.Komarov monarxiyaning yuridik xususiyatlari qatorida hokimiyatdan muddatsiz, ya’ni umrbod foydalanishni, taxtni meros yoki qarindoshlik huquqi asosida egallashni, tashqi munosabatlarda vakolatni boshqalardan olingan mandat emas, balki shaxsiy huquq asosida amalga oshirishni hamda davlat boshlig‘ining yuridik javobgarligi mavjud emasligini ko‘rsatadi.[3] Mazkur belgilar monarxiyani respublikadan ajratishda klassik mezonlar sifatida qabul qilingan. Biroq umrbodlik monarx hech qanday holatda hokimiyatdan chetlashtirilishi mumkin emasligini anglatmaydi. Tarixda taxtdan voz kechish, regentlik o‘rnatish, sulolaviy qaror, inqilob yoki konstitutsiyaviy islohot natijasida monarx vakolatining muddatidan oldin tugatilgan holatlari ko‘p uchraydi. O‘zbek huquqshunoslari ham monarxning umrbod hukmronligi tabiiy o‘limdan boshqa huquqiy yoki siyosiy asoslar mavjud emas, degan ma’noni bildirmasligini qayd etadilar.[4]

Monarxiyaning uchinchi belgisi monarxning o‘z vakolatini xalqdan olingan bevosita siyosiy mandat asosida amalga oshirmasligidir. Saylangan prezident muayyan elektoral dastur bilan hokimiyatga keladi, uni saylagan fuqarolar oldida siyosiy majburiyatlarga ega bo‘ladi va keyingi saylovlarda faoliyatiga siyosiy baho beriladi. Monarxning hokimiyati esa saylovchilarning davriy ishonchiga emas, davlatning tarixiy-huquqiy davomiyligi, vorislik qoidalari va konstitutsiyaviy maqomga tayanadi. Bu holat monarxga kundalik partiyaviy raqobatdan nisbatan xoli bo‘lish va davlat birligining ramzi sifatida namoyon bo‘lish imkonini beradi. Biroq mazkur

ustunlik demokratiya nuqtayi nazaridan bahsli xususiyatga ham ega: monarxning oliy davlat lavozimiga aholining teng siyosiy ishtirokisiz kelishi xalq suvereniteti va saylov tengligi prinsiplariga to'liq muvofiq kelmaydi, degan qarashlar mavjud.

Monarxiyaning to'rtinchi belgisi monarxning siyosiy va yuridik javobgarlikdan ozodligi, ya'ni uning daxlsizligi prinsipidir. Klassik monarxiyada "monarx nohaq ish qilishi mumkin emas" degan huquqiy fiksiya amal qilgan. Monarx nomidan qabul qilingan hujjatlar uchun vazirlar javobgar bo'lgan, monarxning o'zi esa parlament yoki sud oldida siyosiy-huquqiy javobgarlikka tortilmagan. Hozirgi parlamentar monarxiyalarda mazkur prinsip kontrassignatura instituti orqali amalga oshadi: monarxning rasmiy hujjati bosh vazir yoki tegishli vazir tomonidan imzolanib, uning huquqiy va siyosiy oqibati uchun hukumat a'zosi javobgar bo'ladi. Shu tariqa "monarx hukmronlik qiladi, ammo boshqarmaydi" qoidasi shakllanadi. Monarxning shaxsiy daxlsizligi saqlangan bo'lsa-da, davlat boshqaruvining real natijalari uchun saylangan parlament va unga hisobdor hukumat javob beradi.

Monarxiyaning yana bir xususiyati davlat hokimiyatining uzluksizligi va ramziy birligini ta'minlashidir. Prezident saylovlari siyosiy raqobat, hokimiyat almashinuvi va partiyaviy kurash bilan bog'liq bo'lsa, monarxning maqomi siyosiy sikllardan tashqarida turadi. Shu jihatdan monarx davlatning muayyan hukumati yoki siyosiy partiyasini emas, davlatchilikning tarixiy davomiyligini ifodalashi mumkin. International IDEA tahlilida konstitutsiyaviy monarx parlament demokratiyasi sharoitida asosan merosiy va ramziy davlat boshlig'i bo'lib, vakillik, marosimiy va fuqarolik vazifalarini bajarishi, ammo ijro va siyosat belgilash vakolatini amalga oshirmasligi ko'rsatilgan. Tashkilot mutaxassislariga ko'ra, bunday institut an'anaviy legitimlikni parlament demokratiyasi bilan birlashtirishi, siyosiy davomiylik va barqarorlikni ta'minlashi hamda demokratik o'tish davrida turli siyosiy kuchlar o'rtasida ishonchni mustahkamlashi mumkin.[5]

Monarxiyalarning turlari, eng avvalo, monarx hokimiyatining cheklangan yoki cheklanmaganligiga qarab tasniflanadi. Mutlaq yoki absolyut monarxiyada davlat suverenitetining asosiy va amalda yagona sohibi monarx hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va ko‘p hollarda sud hokimiyati ham bevosita yoki bilvosita monarx qo‘lida jamlanadi. Monarx hukumatni mustaqil shakllantiradi, vazirlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, normativ hujjatlar qabul qiladi, tashqi siyosatni belgilaydi, qurolli kuchlarni boshqaradi hamda davlat boshqaruvi organlari uning oldida hisobdor bo‘ladi. Mutlaq monarxiyada parlament mavjud bo‘lsa ham, u maslahat yoki cheklangan qonunchilik vazifasiga ega bo‘lishi mumkin; uning faoliyati monarxning oliy siyosiy irodasini to‘liq cheklay olmaydi. O‘zbek huquqshunoslari mutlaq monarxiyaning asosiy belgisini monarxning to‘la hokimiyatini cheklaydigan va unga ta’sir ko‘rsatadigan mustaqil davlat organining mavjud emasligida ko‘radilar. Bunday tizimda monarxning irodasi huquq va qonunning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘lib, qonunchilik, ijro va sud funksiyalari uning hokimiyati doirasida birlashadi.[6]

Mutlaq monarxiyaning tarixiy yuksalishi feodal tarqoqlikni bartaraf etish, markazlashgan armiya, soliq tizimi va yagona davlat apparatini shakllantirish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan. XVII–XVIII asrlarda Fransiya, Rossiya va ayrim Yevropa davlatlarida absolyut monarxiya markazlashgan milliy davlat barpo etishning muhim vositasi vazifasini bajargan. Biroq burjua munosabatlari, parlament institutlari va fuqarolik jamiyati rivojlangan sari monarxning cheklanmagan hokimiyati ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot talablariga zid kela boshladi. Natijada ayrim mutlaq monarxiyalar inqiloblar orqali respublikalarga aylangan bo‘lsa, boshqalari konstitutsiyaviy va parlamentar shakllarga transformatsiya qilingan. Shu ma’noda mutlaq monarxiya faqat muayyan tarixiy davrga xos shakl emas, balki hozirgi davlatchilikda ham ayrim diniy, an’anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida saqlanib qolayotgan boshqaruv modeli hisoblanadi.

Cheklangan monarxiyada monarxning vakolatlari konstitutsiya, parlament, hukumat yoki boshqa siyosiy-huquqiy institutlar bilan cheklanadi. Cheklangan monarxiyaning ikki asosiy ko‘rinishi dualistik va parlamentar monarxiyadir. Dualistik monarxiya mutlaq va parlamentar monarxiya o‘rtasidagi oraliq shakl sifatida tavsiflanadi. Unda qonun chiqaruvchi hokimiyat monarx va parlament o‘rtasida taqsimlanadi, ijro hokimiyati esa asosan monarx tasarrufida qoladi. Monarx hukumatni shakllantiradi, vazirlar parlament oldida emas, ko‘pincha monarx oldida javobgar bo‘ladi. Monarx parlament qabul qilgan qonunlarga mutlaq yoki kechiktiruvchi veto qo‘yishi, parlamentni tarqatib yuborishi, farmonlar chiqarishi va ayrim sharoitlarda favqulodda vakolatlarni amalga oshirishi mumkin. Shu sababli dualistik monarxiyada ikki siyosiy markaz — monarx va parlament mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi vakolatlarni nisbati davlatdagi real siyosiy kuchlar muvozanatiga bog‘liq bo‘ladi.

Dualistik monarxiyaning huquqiy tabiati shundaki, konstitutsiya va parlament mavjudligiga qaramay, hukumat parlament ko‘pchiligining siyosiy ishonchiga to‘liq bog‘lanmaydi. Monarx ijro hokimiyatining real rahbari bo‘lib qoladi va davlat siyosatini belgilashda mustaqil ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun dualistik monarxiyani faqat yozma konstitutsiya mavjudligi asosida parlamentar monarxiya deb baholash mumkin emas. Boshqaruv shaklini aniqlashda konstitutsiya matnidani tashqari, hukumatni kim shakllantirishi, vazirlar kim oldida hisobdor ekani, monarxning parlamentni tarqatish va qonunlarga veto qo‘yish vakolatlari hamda mazkur vakolatlarning amalda qo‘llanishi tahlil qilinishi zarur.

Parlamentar monarxiya cheklangan monarxiyaning demokratik siyosiy rejim bilan eng uyg‘unlashgan shakli hisoblanadi. Unda monarx yuridik jihatdan davlat boshlig‘i bo‘lsa-da, davlat boshqaruvining real vakolatlari parlament ko‘pchiligi asosida shakllangan hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Hukumat monarx oldida emas, parlament oldida siyosiy javobgar

bo‘ladi; bosh vazir lavozimiga, odatda, parlament saylovlarida ko‘pchilik o‘rinni egallagan partiya yoki koalitsiya rahbari tayinlanadi. Qonunlar parlament tomonidan qabul qilinib, monarxning ularni imzolashi yoki e‘lon qilishi asosan rasmiy xususiyat kasb etadi. O‘zbek huquqiy adabiyotlarida parlamentar monarxiyaning belgilari sifatida monarx vakolatlarning deyarli barcha sohalarda cheklangani, ijro hokimiyatining hukumat tomonidan amalga oshirilishi, hukumatning parlament oldida javobgarligi, uning parlamentdagi ko‘pchilik asosida shakllantirilishi hamda monarxning qonunlarni tasdiqlash faoliyati formal xususiyatga egaligi ko‘rsatiladi.[7]

Parlamentar monarxiyada davlat boshlig‘i va hukumat boshlig‘i vazifalari aniq ajratiladi. Monarx davlatning konstitutsiyaviy va ramziy boshlig‘i, bosh vazir esa real ijro hokimiyati rahbari hisoblanadi. International IDEA tadqiqotiga ko‘ra, zamonaviy parlamentar monarxiya XVIII–XIX asrlarda Yevropada hokimiyatning merosiy hukmdordan parlament roziligiga tayanuvchi vazirlarga bosqichma-bosqich o‘tishi natijasida shakllangan. Monarxning real boshqaruv vakolatlari mas‘ul vazirlarga o‘tib, uning zimmasida katta ramziy ahamiyatga, ammo cheklangan amaliy hokimiyatga ega davlat boshlig‘i instituti saqlanib qolgan. Bunday tizimda bosh vazir ijro hokimiyati rahbari sifatida faoliyat yuritadi, monarx esa asosan vakillik vazifalarini va ayrim favqulodda hollarda xolis konstitutsiyaviy hakamlik funksiyasini bajaradi.[8]

Konstitutsiyaviy monarxiya tushunchasi ba‘zan parlamentar monarxiyaga sinonim tarzida qo‘llanadi, biroq ilmiy nuqtayi nazardan konstitutsiyaviy monarxiya kengroq tushunchadir. Monarx vakolatlari konstitutsiya yoki boshqa asosiy huquqiy hujjatlar bilan cheklangan har qanday monarxiya konstitutsiyaviy monarxiya hisoblanishi mumkin. Bunda dualistik monarxiya ham konstitutsiyaviy xususiyatga ega bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Parlamentar monarxiya esa konstitutsiyaviy monarxiyaning shunday rivojlangan turiki, unda hukumat parlament oldida siyosiy javobgar,

monarx esa ijro siyosatini mustaqil belgilamaydi. Shuning uchun konstitutsiyaning mavjudligi monarxiyaning parlamentarligini avtomatik ravishda anglatmaydi; real vakolatlar taqsimoti va konstitutsiyaviy amaliyot asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, monarxiya davlat boshqaruvining tarixan qadimiy, ammo zamonaviy davlatchilikda ham turli ko‘rinishlarda saqlanib qolayotgan murakkab siyosiy-huquqiy shaklidir. Uning klassik belgilari oliy davlat hokimiyatining yakka shaxs tomonidan amalga oshirilishi, monarx maqomining merosiy yoki maxsus tartibda vujudga kelishi, vakolatning muddatsizligi, monarxning aholidan bevosita mandat olmasligi, davlat nomidan o‘z huquqi asosida harakat qilishi va yuridik-siyosiy daxlsizligidan iborat. Shu bilan birga, merosiy hokimiyat, daxlsizlik va aholining davlat boshlig‘ini tanlashda ishtirok etmasligi kabi xususiyatlar monarxiyani demokratik legitimlik nuqtayi nazaridan doimiy ilmiy va siyosiy bahslar predmeti bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent, 2018. 58-59-betlar.
2. Saidov A.X., Tojixonov U. Davlat va huquq nazariyasi: ikki jildli. 1-jild. Davlat nazariyasi. — Toshkent: Adolat, 2001. 158-159-betlar.
3. Davlat va huquq nazariyasi: darslik / mualliflar jamoasi. — Toshkent: TDYUI, 2000. 122-123-betlar.
4. Davlat boshqaruv shakli: o‘quv-uslubiy material. — Toshkent, 2005. 8-bet.
5. Bulmer E. Constitutional Monarchs in Parliamentary Democracies. Constitution-Building Primer 7. — Stockholm: International IDEA, 2014. — P. 1.
6. Davlat boshqaruv shakli: o‘quv-uslubiy material. — Toshkent, 2005. 9-bet.

7. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. — Toshkent, 2018. 59-60-bet.
8. Bulmer E. Constitutional Monarchs in Parliamentary Democracies. Constitution-Building Primer 7. — Stockholm: International IDEA, 2014. — P. 2.